

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2019-yil. 10–11-sonlar.

Bosh muharrir
Bahodir JOVLIIYEV

Tahrir hay'ati:
Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJIYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Sirojiddin SAYYID
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nilufar Namozova

Jamoatchilik kengashi:
Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO JAYEVA
Ehsan TURDIQULOV

Sahifalovchilar:
Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:
Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:
100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@mail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chib olingan maqolalar «Til va adabiyot» ta'limdosh oltinid, deb e'lonlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning ixtiyariy narxini nazarda tutuvchi muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bo'shliqchi ta'minlan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilmaydi va maullifga qaytarilmaydi.

Buxoroniqonaga 03.12.2019-yilga topshirildi. Oltin oltinida chop etildi. Qog'oz bichami 60x84/4. Shartli bosma taboqi 6,0 «Tuz» gamituras. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosma-xotimada chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod san. Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buxoroniqa. Adadi 3120 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT
TALIMI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

journal

1991-yildan chiqq boshlagan

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

ILMION O'ZBEKISTONIN HANGLI BO'L OMINI

Nigora Uralova, Metoda - qab ustaligi shis 3
Abdusattor Sodiqev, Inqilb g'il usab' - isonlik ishon 7

DARS - BEKARDAS

Sadoqat Draqov, Yozuvchi sozlar 6

ILG'IB PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Didar Nurmuxamedov, Kreativ fikrlashda talim texnologiyalarining o'rni 11
Nilufar Rahmonova, Dax o'z adabiyot fanini o'qitishda diktaro oylarining o'rni 14
Ziela Ziyaviddinova, Dax rili darslarda taqqoslash metodida foydalanish 18
Leila Hiyeva, Nazima Majidova, Chet tilidagi o'qish-b' g'atibda xalqaro texnologiyalar 18
Kamol Draqov, Isnat Sarsoyeva, Smart board as an innovative teaching tool in a modern English class 20
Shahnoza Xo'jayeva, Chet tili o'qitishda audio-visual talim texnologiyalari 23

ILMION TAKSITI

Boqizhon To'aliyev, Xurshida Xamrakulova, Shahnoza Ergasheva, "Uch o'g'ini botirish" eragini tahlil qilish usullari 24

TABIR

Azamat Uralov, Mufassslarning kelib chiqishi va boylik masalasi 27
Gulnoza Ergasheva, O'zbek xalq og'zaki va ilmiy usmon adabiyatida mehribanlik usullari 36
Kamoliddin Muxommedov, Lektsionlar va usmon o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish 33
Maqida Sabirova, Meditatsiya va usmon o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish 35
Erkin Muxommedov, Dabek-usmon usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish 37
Dilrabo Yusubova, Mualliflik usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish 38

TABIRIYOTLAR

Ilhola Ismailova, Mohizur Sobirova, Gapning til ishonida ishonida 41
Muhammadjon Solijonov, Til - inqilbning usmoniy belgisi 43
Nilufar Adilova, Dax o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 45
Usmon Xo'jayev, Pedagogik talim innovatsion klasteri: masalan va shaxs 47
Kamoliddin Muxommedov, Inqilbning usmoniy belgisi 49
Abdusattor Sodiqev, Shaxsda shaxsda namoyon bo'lish usullari 52
Nosir Rajabov, Inqilb va shaxsda namoyon bo'lish usullari 54
Isnat Sarsoyeva, Tilshunoslikda shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 57
Isnat Sarsoyeva, Tilshunoslikda shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 57

ILMION TAKSITI

Olim Temenov, Abdulla Topov, shaxsda shaxsda namoyon bo'lish usullari 62
Tilshunoslikda shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 65
Xurshida Xamrakulova, O'zbek ta'lim usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 65
Abdulla Xamrakulov, Inqilb usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 66
Mubolaj Fozilova, Inqilbning usmoniy belgisi 68
Iroda Muxommedova, Problems of using modern information technologies in teaching foreign language 69
Nargiza Rahmonova, Kamoliddin Muxommedov, "Inqilb usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 70
Abdusattor Sodiqev, Tilshunoslikda shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 72

ILMION TAKSITI

Tomilla Zaxova, Top-shu, Respublik, Sledni, XXI vek 73
Alyona Sokolovskaya, Kim yozuvchi, dokim, diktaro usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 76
Kamoliddin Muxommedov, Kim yozuvchi, dokim, diktaro usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 77
Kamoliddin Muxommedov, Kim yozuvchi, dokim, diktaro usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 79
Svetlana Kutayeva, Ю.Я.Ковалев «Рядом Вася» 82
Nargiza Rahmonova, Anlatilgan usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 83
Gulnoza Muxommedova, Til - shaxsda shaxsda namoyon bo'lish usullari 85
Svetlana Kutayeva, Ю.Я.Ковалев «Рядом Вася» 85

ILMION TAKSITI

Irina Chernikova, Uch usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 87
Timur Dilshodbekov, Organizatsion usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 89
Nargiza Rahmonova, Aktualnye voprosy razvitiya kriticheskogo myshleniya v uchbennoy protsessе kazanskogo obrazovatel'nogo ustroystva 92

ILMION TAKSITI

Lena Lagari, Ob uchbennoy usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 95
Shoira Kurbanova, Model strategii diktaro usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 97

ILMION TAKSITI

Nargiza Rahmonova, Inqilbning usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 99
Gulnoza Muxommedova, Tilshunoslikda shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 102
Kamoliddin Muxommedov, Polnomo funktsionarniy na uchbennoy russskogo, uzbeckogo i angliyskogo yazykovo 102

MASTERTVO PEREVODA

Tuzkha Saidyeva, O russskoy perevode razvitiya shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 103

LITERATUROSHUNOSLIK

Saidat Madirnova, Metamorfologiyasida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 105
"Inqilb usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 105
Zulqurnon Usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 106
Xalima Yusubova, Stylisticheskaya osobennosti razvitiya A.Navoiyevskogo «Mavlona» 110
Dilshod Muxommedov, Problema geroya v romane-fantime S.Solov'yeva «Mavzurniy bog diktaro» 112
Lektsiya Xamrakulov, Mavlona literaturasi usmoniyatida shaxs-shaxs o'z ishlarida shaxsda namoyon bo'lish usullari 114

ILMION TAKSITI

Faridjon Abdurajimov, Transformatsionno-distributsionnye sistemy treksivnykh glazolov sovremennoy russskoy yazyk 118

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktoriik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashr.

"ENG FAOL FILOLOG-MUALLIM"LAR MA'LUM BO'LDI

"Пегий пёс, бегущий краем моря" (урок-конференция) dars ishlanmasi, Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi 9-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Didar Nurmuxamedovning "Kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining o'rni" mavzusidagi maqolasi g'olib topilib Xalq ta'limi vazirligi tomonidan taqdim etilgan noutbuklari qo'lga kiritishdi.

Shuningdek, tanlovda ikkinchi va uchinchi o'rinlarga munosib topilgan Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi 17-maktab o'qituvchisi, "Shuhrat" medali sohibasi Maxfur Otayeva, Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 126-maktab o'qituvchisi Nilufar Rahmonova, Buxoro shahridagi 20-maktab o'qituvchisi Dilshod Muxommedov va G'ijduvon tumanidagi 126-maktab o'qituvchisi Dilshod Muxommedov ta'lim texnologiyalarining o'rni mavzusidagi maqolasi g'olib topilib Xalq ta'limi vazirligi tomonidan taqdim etilgan noutbuklari qo'lga kiritishdi.

Ilmion Takstita g'olib bo'lgan maqolalar 2019-yilning 10-11-sonlarida chop etilgan.



vositalardan biri bo'lib, hatto butun boshli bir hikoya detali zaminida qurilishi ham mumkin.² Shu bois badiiy detali hikoyani harakatga keltruvchi o'vqatli vazifasini bajaradi. Badiiy hikoyalar sirasiga A.Qahorning "Angri", Sh.Xolmirzayevning "Bodom qishida gulladi", N.Eshonqulning "Bahovuddinning it", "Shamolni tutib bo'lmaydi" kabi hikoyalari kiradi. Mazkur tipdagi sarlavhali hikoyalarda badiiy detali zimmasiga ulkan ma'no yuklanadi. Hikoya sarlavhasini ifodalab kelgan so'z yoki so'z birkmasi badiiy matn tarkibidan o'rin oladi;

b) obraz sarlavhada hikoyalarning obrazlari sarlavhaga olib chiqiladi. Aniqrog'i, bosh obraz yoki obrazlar hikoya yuqoridan joy oladi va asar nomlarida qahramonlarga urg'u berilib, sujet yo'nalishi shu qahramonlar bilan bog'liq ekanligiga ishora qilinadi.³ Cho'iponning "Novvoy qiz", Oybekning "Gulnora opa", "Fanorchi ota", M.Osimning "Shiroq", T.Murodning "Bobosi bilan nevarasi", Sh.Xolmirzayevning "Yozuvchi", "Ustoz", "Notamish odam" kabi asarlari markazida bosh qahramonning turishi qissa janriga xos xususiyatlarni eslatadi. Ko'rinadiki, bu kabi hikoyalarda qahramonlarning nasi-nasabi, kasb-hunari, laqabi va boshqa belgilarini bildiruvchi so'zning o'zi yoki izohlanmishi hikoya sarlavhasiga aylanadi hamda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hikoya tarkibidagi barcha unsurlar qahramonning ichki dunyosini ko'rsatishga xizmat qiladi;
- hikoya qahramonining portretiga yozuvchi prototipning noyob xislatlari ko'chiriladi;

2019-yil 10 – 11-sonlar

50

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

TIL VA ADABIYOT

TALIM

G. G'ULOM

Tadqiqotlar

ayrim "bedavolar"ni asl xastaga mengzaydi. Bunaqa holatni adibning "O'g'ri", "Ming bir jon", "Mayiz yemagan xotin", "Boshsiz chavandoz" kabi hikoyalarda ham ko'rishimiz mumkin;

– **sarlavha mohiyatiga faqat hikoya mutolaesidan so'ng yetib borish.** Mutaxassislar sarlavhani hikoyaning "kaliti" deyishadi. Ammo kinoya sarlavhali hikoyalarda buning teskarisini kuzatishimiz mumkin. Masalan, "O'g'ri" hikoyasiga nima uchun mazkur nom tanlangani uni o'qib chiqmasdan turib tushunib yetishimiz, uning tagidagi kinoyani fahmlashimiz qiyin. Bu hol bir yoki bir necha so'zning ma'nosini ochish uchun butun boshli hikoya matni kalit vazifasini bajarishidan dalolat;

b) tazod sarlavha ikki tushunchaning ziddi o'laroq vujudga keladi. Bunday hikoyalardagi voqealar oqimi parallel sujet chizigida o'z ifodasini topadi. Tabiat tasviri yozuvchining badiiy g'oyasini ifodalovchi eng muhim vositaga aylanadi hamda hikoya personajlarining ruhiyatidagi evliliklar tabiat hodisalariga qiyoslanadi. Ijodkorning noyob poetik topilmasi ramziy ma'no ifodalab, sarlavhaga chiqariladi. A. Cho'iponning "Qor qo'ynidagi lola", Sh.Xolmirzayevning "Bodom qishida gulladi", "Kuzda bahor havosi", "Bulut to'sgan oy", Q.Norqobilovning "Qishdagi lola" asarlari shunday hikoyalar sirasiga kiradi;

d) falsafiy sarlavhalar qo'llangan hikoyalarda inson, jamiyat, olam va odam munosabati haqida gap boradi. Hikoyaga tanlangan sarlavha ham falsafiy mushohada mahsul hisoblanadi. Bunday sarlavhalar yozuvchining badiiy niyatini emas, balki olam va odam tushunchasining mohiyatini anglashga da'vat qiladi. Xuddi Sh.Xolmirzayevning "Odam", "Olam tortishish qonuni", Nurilloh Muhammad Raufxonning "Etakdagi kulba", "Chilla", N.Eshonqulning "Bahovuddinning iti", "Shamolni tutib bo'lmaydi" kabi hikoyalari singari. Bunday hikoyalar ayrim nuqtalarda umumiylik kasb etadi va shu jihati bilan "yangi asar" nomiga loyiqdir. Bular jumlasiga: a) voqelikni idrok etish, badiiy ifodalash va unga munosabatda metaforik modelning namoyon bo'lishi; b) badiiy talqinda assotsiativ usul (xayolan ortga qaytishning yetakchiligi); d) sujet va obrazlarning to'liq talqinda metaforaga qurilganligi kiradi.⁴ Bir qarashda bunday sarlavhalar oddiy ifodaga o'xshaydi. Lekin ular hikoya matniga uyg'unligi bilan mazmuni ochish, voqealarni idrok etish, falsafiy fikrlashda kitobxoniga yordam beradi.

3. Ruhiiy-emotsional sarlavha. Mazkur turdagi sarlavhalar qo'llangan hikoyalarda g'oyaviy, tanqidiy xarakterdan ko'ra ruhiy tasvir xususiyati ustunlik qiladi. Bu bilan ruhiy-emotsional sarlavhali hikoyalar drama janri e'lon etiladi. A.Qahorning "Dahshat", Sh.Xolmirzayevning

"Qahorning "O'g'ri" sh.Xolmirzayevning "Bodom qishida gulladi", N.Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyalardagi sarlavhalar majoziy ma'nodagi bo'lishi ham bir qatorda poetik-falsafiy tabiatga ega bo'lishi ham kasb-hunari hamda ma'no ma'nosini o'z ichiga oladi. Ushbu sarlavhalar tarkibiy qismlaridan:

a) **kinoya sarlavha** – yozuvchining badiiy maqsadiga qo'yilgan haykai vazifasini o'taydi. A.Qahorning "Bemor", "O'g'ri", "Ming bir jon", "Mayiz yemagan xotin", "Boshsiz chavandoz" hikoyalari zaminida achchiq kinoya yotadi. Bunday sarlavhalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

– **sarlavhaning butun hikoya mazmuniga teng kelishi** – bunda yozuvchining badiiy maqsadi, hikoya sujeti ixcham shaklda sarlavha ko'rinishini oladi. Asarni o'qib chiqariladigan xulosa esa sarlavha bilan teng bo'ladi;

– **sarlavhaning polisemantikligi** – kinoya sarlavhaning mazkur xususiyatida ma'no tashqi va ichki (asl) turlarga bo'linadi. Tashqi jihatdan u go'yoki oddiy so'z, lekin ichki tarafdin kinoya sarlavhaning xususiyatini "chaqilmagan yong'oq"ga o'xshatishimiz mumkin. Yozuvchilar ham o'z asarlarining tub ma'nosini tashqi qobiq ichiga joylab, go'zal poetik bo'lakni yaratadilar;

– **sarlavhaning ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lishi.** Bunda ijodkor hikoyada tasvirlayotgan voqea-hodisa, muammo, kamchiliklar aynan biror shaxsga, oilaga emas, balki butun jamiyatga aloqador bo'ladi. Masalan, A.Qahhor o'zining "Bemor" hikoyasi orqali butun jamiyatdagi illatlarni ko'rsatib, shu "kasallik"ka chalingan

"Ko'ngil", "Nimadir yo'q bo'ldi", A.Yo'ldoshning "Yolg'on va haqiqat", N.Norqobilovning "Ayrilq quvonchi", D.Saidovanning "Yig'i" singari hikoyalari mazkur usul vositasida tanlangan sarlavhalari bilan yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. A.Qahorning "Dahshat" hikoyasida yozuvchi boshidayoq tabiat tasviriga qo'rqunvi singiradi va o'quvchini "dahshat eshigi"dan olib kiradi. "Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi.

Bunday kechalarda odamzod qo'ymijoz, g'uj bo'lib va nimanidir kutib jimgina o'tirishni xohlab qoladi". Tabiatning vaqinchalik "po'pisa"si bilan boshlangan hikoya eng katta dahshatlardan biri bo'lgan o'tim bilan yakunlanadi. Butun hikoya mana shunday ruh ostida kechadi va bu ruh sarlavhaga aylanadi.

4. Xronotop sarlavha. Bunday sarlavhalar 2 xil bo'lib, birinchisi – zamon-vaqt bilan va ikkinchisi ma'lum bir makon-joyga aloqador sarlavhalar. Makon-joyni ifodalovchi sarlavhali hikoyalar mazmunan keng, hajman kichik shaklda bo'lib, unda bir jamiyat taqdiri yoki yagona insonlarning ichki olamini tasvirlash asosiy plan-ga chiqadi. Hikoya janri sarlavhasidagi so'z metaforik ma'no kasb etib, ijodkorning badiiy maqsadi bilan poetik aloqaga kirishadi. O'tkir Hoshimovning "Jintepa", "Shaharlik kuyov", Murod Muhammad Do'stning "Dasht-u dalalarda", "Galatepaga qaytish", Luqmon Bo'rixonning "Qo'noq" kabi hikoyalari makon-joy sarlavhali hikoyalar sirasiga kiradi.

Zamon-vaqt sarlavhali hikoyalar davr, yil, fast, oy, kun kabi tushunchalar bilan bog'liq bo'lib, hikoya sarlavhasiga chiqarilgan so'z hikoya voqealari yuz beradigan zamoni anglatadi. Odi Yoqubovning "Rostgo'yning hayoti", O'tkir Hoshimovning "Dehqonning bir kuni", "Dehqonning bir tuni", Uchqun Nazarovning "Qish nafasi", "Umr" kabi hikoyalari zamon-vaqt sarlavhali hikoyalarga misol bo'ladi.

Xullas, sarlavha badiiy asarning muhim elementi sanaladi. O'zbek hikoyalari sarlavha qo'yish stilistikasi hikoya janri imkoniyatlarining o'zgarish omillari bilan bog'liq bo'lib, yozuvchining badiiy mantig'idan ang-lashiladi.

Demak, o'zbek hikoyalardagi sarlavhalarning poetik xususiyati: ijodkor uslubi, dunyoqarashi, badiiy niyati va so'z qo'llash mahoratida; ijtimoiy hayot muammolarini tasvirlashda; hikoya janri taraqqiyotidagi yangilanish bosqichida; hikoya janri imkoniyatlarining tasvir tarzi, hajm-me'yori, sujet kompozitsiyasi jihatidan o'zgarishlarida o'z ifodasini topadi.

¹H.Umurov Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 136-bet.

²T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, 2002. 470–473-betlar.

³O'sha manba. 146-bet.

⁴U.Joraqulov. Nazariy poetika masalalari. Osyoish ayyomi. – Toshkent: G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2005. 218–219-betlar.

1. O. Abdullayev. *Adabiyot va texnologiya*. Toshkent: "Foydalanilgan adabiyotlar" nashriyoti, 2001.
2. Porfiriy M. *Adabiyot va texnologiya*. Toshkent: "Foydalanilgan adabiyotlar" nashriyoti, 2001.
3. Ягодина Н.В. К вопросам теории кластера // Социально-экономические системы: современное состояние и перспективы. Материалы четвертой международной научно-практической конференции. – Омск: Изд-во «СИБИТ», 2009.
4. Воронцов А. Кластерный анализ – база управления конкурентоспособностью на макроуровне // Маркетинг, 2003.

№1.

Komiljon HAMRAYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

HIKUYADA SARLAVHA POETIKASI

Annotsatsiya. Maqolada hikoyalarga sarlavha qo'yish stilistikasining o'ziga xos xususiyatlari hamda sarlavhadagi yozuvchining badiiy g'oyasini ifodalovchi jihatlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: sarlavha, kompozitsiya, sujet tizimi, badiiy obraz, badiiy detal, badiiy g'oya, majoziy ma'no, kinoya, hikoya janri.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности стилистики заголовков, а также аспекты, которые выражают художественную идею писателя в заголовке.

Ключевые слова: заглавие, композиция, сюжетная система, художественный образ, художественная деталь, художественная идея, аллегорический смысл, жанр рассказа.

Annotation. The article explores the specifics of title stylistics in stories, as well as the aspects that express writer's artistic iden in the title.

Key words: title, composition, plot system, artistic images artistic detail, artistic idea, allegoric meaning, irony, story genre.

Sarlavha – badiiy asarning ajralmas qismi. Unda asarning umumiy asi mazmuni aks etadi. Sarlavha ayni shu xususiyati bilan badiiy asar kompozitsiyasining

muhim unsuri hisoblanadi. "Aniqlik va qisqalik nasrning birinchi ustunligidir. U fikrni talab etadi. Bizis go'zal hikoya hech narsaga xizmat qilmaydi. Asar sarlavhasi bir

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

49

2019-yil 10 – 11-sonlar

Tadqiqotlar

yoki bir nechta so'zda ifodalinishi, yuzlab sahifalarga sochilgan fikrni o'zida aniq mujassam etishi, nomlanishidanoq o'quvchini o'ziga jalb qilishi lozim. Bu juda ham azobli, ayni chog'da rohatlidir.¹

Shu bois epik turning kichik janri – hikoya sarlavhasi haqida to'xtalisk.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib o'zbek hikoyalari mavzu ko'lami, yangicha ifodalash yo'sini hamda sujet va kompozitsion jihatdan o'zgarib borganligini ko'ramiz. Aynisa, o'tgan asrning 60–80-yillariga kelib inson obraziga turli rakurda yondashish, ijod maydoniga zamonaviy personaj va qahramonlarni olib kirish kuchaydi. Mustaqillik davri hikoyalarda esa inson ruhiyatidagi evrilishlarni tabiiat fonida ifodalash, voqealarni falsafiy tafakkur bilan mushohada qilish, jahon adabiyoti tajribalaridan foydalanish kabi jihatlar ko'zga tashlanadi. Bu hikoya janrining imkoniyatlarini bir pog'ona yuqoriga ko'tardi. Fikrimizni oydinlashtirish uchun hikoyaning eng kichik qismi – sarlavhaga murojaat qilsak.

O'zbek hikoyalardagi sarlavhalarni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Hikoya tarkibidan o'sib chiquvchi sarlavha: a) detal sarlavha; b) obraz sarlavha; d) sujet sarlavha.
2. Majoziy sarlavha: a) kinoya sarlavha; b) tazod sarlavha; d) falsafiy sarlavha.
3. Ruhiy-emotsional sarlavha.
4. Xronotop sarlavha.

1. Hikoya tarkibidan o'sib chiquvchi sarlavha asar voqealarini uyushtiruvchi, ijodkor badiiy niyati bilan bog'liq detal, obraz yoki sujet chizig'iga asosan tashlanadi. Masalan:

a) detal sarlavha hayotni tipiklashtiruvchi asosiy vositalardan biri bo'lib, hatto butun boshli bir hikoya detal zaminida qurilishi ham mumkin.² Shu bois badiiy detal hikoyani harakatga keluvchi dvigatel vazifasini bajaradi. Bunday hikoyalar sirasiga A.Qahhomning "Anor", Sh.Xolmirzayevning "Oqto'psh", A.A'zamning "Tiqin", N.Eshonqulning "Opqon", "Bitik", A.Ibodinovning "Bir tomchi yosh" kabi hikoyalarni kiritish mumkin. Mazkur tipdagi sarlavhali hikoyalarda badiiy detal zimmasiga ulkan ma'no yuklanadi. Hikoya sarlavhasini ifodalab kelgan so'z yoki so'z birligini badiiy matn tarkibidan o'rin oladi;

b) obraz sarlavhada hikoyalarning obrazlari sarlavhaga olib chiqiladi. Aniqrog'i, bosh obraz yoki obrazlar hikoya yuqorisidan joy oladi va asar nomlarida qahramonlarga urg'u berilib, sujet yo'nalishi shu qahramonlar bilan bog'liq ekanligiga ishora qilinadi.³ Cho'iponning "Novvoy qiz", Oybekning "Gulnor opa", "Fanorchi ota", M.Osimning "Shiroq", T.Murodning "Bobosi bilan nevarasi", Sh.Xolmirzayevning "Yozuvchi", "Ustoz", "Notanish odam" kabi asarlari markazida bosh qahramonning turishi qissa janriga xos xususiyatlarni eslatadi. Ko'rinadiki, bu kabi hikoyalarda qahramonlarning nast-nasabi, kasb-hunari, laqabi va boshqa belgilarini bildiruvchi so'zning o'zi yoki izohlanishi hikoya sarlavhasiga aylanadi hamda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hikoya tarkibidagi barcha unsurlar qahramonning ichki dunyosini ko'rsatishga xizmat qiladi;
- hikoya qahramonining portretiga yozuvchi prototipiga asoslanib ifodalashga xizmat qiladi;

– qalamkashning badiiy maqsadi bilan hikoya qahramonining taqdiri uyg'unlashib, asar g'oyasini tashkil etadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda ijodkor butun bir hikoyaning markaziga o'z bosh qahramonini qo'yadi;

d) sujet sarlavhada yozuvchi badiiy maqsadga qarab, hikoyani yozishdan oldin yoki keyin sarlavha tanlaydi. Sujet sarlavha aynan ikkinchi turga ko'proq mansub bo'lgan, so'z ustasining voqealar rivojiga asoslanib tanlaydigan hikoya mavzulari turkumiga kiradi. Yozuvchi sarlavhadayoq gap nima xususida borishi to'g'risida xabar beradi. Ya'ni hikoyada sodir bo'ladigan voqea-hodisadan parcha ko'rsatish vazifasini sarlavhaga yuklaydi. Xuddi tomchida quyoshni aks ettirgan kabi.

Mazkur usulda tanlangan sarlavha hikoyada yuz beruvchi butun bir voqealarni qamrab oladi. A.Qodiriyning "Uloqda", "Jinlar bazmi", Sh.Xolmirzayevning "Zov ostida", "Navro'z", Q.Kerjaning "Baliq ovi", A.A'zamning "Avtobus" asarlari yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Bunda yozuvchining badiiy g'oyasi sujet chizig'iga singirib yuboriladi. Kutilmagan o'tkir sujetli tasodiflar bilan personajlar ruhiyatiga ta'sir o'tkazish, hikoya voqealarini bayon qilishda qahramon nutqidan foydalanish kabi xususiyatlarning ustuvorlik qilishi bu turdagi hikoyalarning o'ziga xos jihatlarni belgilab beradi.

2. Majoziy sarlavha ma'no ko'chirishining turli usullariga tayanadi. Sarlavhaga qo'yilgan so'z yoki so'z birligini o'zining "ikkinchi hayot"ni yashay boshlaydi. Aynan shu "ikkinchi hayot" hikoyaning asi mazmuni bilan jism va ruh kabi bir butunlikni tashkil qiladi. A.Qahhomning "O'g'ri", Sh.Xolmirzayevning "Bodom qishda guladi", N.Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyalardagi sarlavhalar majoziy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda didaktik-falsafiy, tanqidiy, qiyoсий ma'no ham kasb etadi. Majoziy sarlavhalar, o'z navbatida, 3 ta tarkibiy qismga bo'linadi:

a) kinoya sarlavha – yozuvchining badiiy maqsadiga qo'yilgan haykal vazifasini o'taydi. A.Qahhomning "Bemor", "O'g'ri", "Ming bir jon", "Mayiz yemagan xotin", "Boshsiz chavandoz" hikoyalari zaminida achchiq kinoya yotadi. Bunday sarlavhalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

– sarlavhaning butun hikoya mazmuniga teng kelishi – bunda yozuvchining badiiy maqsadi, hikoya sujeti ixcham shaklda sarlavha ko'rinishini oladi. Asarni o'qib chiqariladigan xulosa esa sarlavha bilan teng bo'ladi;

– sarlavhaning polisemantikligi – kinoya sarlavhaning mazkur xususiyatida ma'no tashqi va ichki(asl) tur-larga bo'linadi. Tashqi jihatdan u go'yoki oddiy so'z, lekin ichki tarafdin kinoya sarlavhaning xususiyatini "chaqilmagan yong'oq"ga o'xshatishimiz mumkin. Yozuvchilar ham o'z asarlarining tub ma'nosini tashqi qobiq ichiga joylab, go'zal poetik bo'lakni yaratadilar;

– sarlavhaning ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lishi. Bunda ijodkor hikoyada tasvirlayotgan voqea-hodisa, muammo, kamchiliklar aynan biror shaxsga, oilaga emas, balki butun jamiyatga aloqador bo'ladi. Masalan, A.Qahhor o'zining "Bemor" hikoyasi orqali butun jamiyatni ilohlatib, boshqalar bilan teng bo'lishga chaqiradi.